



Surayyo GAFUROVA,

Farg'ona davlat universiteti tilshunoslik kafedrasida katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: sgafurova@gmail.com

Filologiya fanlari doktori, dotsent S.Zokirova taqrizi asosida

PERSIAN-TAJIK VARIATIONS AND THEIR TOPIC GROUPS IN THE WORK "TAVORIKHI GUZIDA – NUSRATNOMA"

Annotation

The article talks about the Persian-Tajik adaptations and their subject groups in the work "Tavorikhi guzida - nusratnoma". In order to reveal the content of the article, Persian-Tajik acquisitions in Asar were analyzed.

Key words: Acquisitions, Persian language, Uzbek language, Tavorikhi guzida - copy, groups.

ПЕРСИДНО-ТАДЖИКСКИЕ ВАРИАЦИИ И ИХ ТЕМАТИЧЕСКИЕ ГРУППЫ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «ТАВОРИХИ ГУЗИДА – НУСРАТНОМА»

Аннотация

В статье говорится о персидско-таджикских обработках и их сюжетных группах в произведении «Таворихи гузида - нусратнома». В целях раскрытия содержания статьи были проанализированы персидско-таджикские приобретения в Асаре.

Ключевые слова: Поступления, персидский язык, узбекский язык, Таворихи гузида-копия, группы.

“TAVORIXI GUZIDA – NUSRATNOMA” ASARIDAGI FORSCHA-TOJIKCHA O‘ZLASHMALAR VA ULARNING MAVZU GURUHLARI

Annotatsiya

Maqolada “Tavorixi guzida – nusratnoma” asaridagi forscha-tojikcha o‘zlashmalar va ularning mavzu guruhlarini haqida so‘z boradi. Maqola mazmunini ochib berish maqsadida Asardagi forscha-tojikcha o‘zlashmalar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: O‘zlashmalar, fors tili, o‘zbek tili, Tavorixi guzida – nusratnoma, guruhlar.

Kirish. Asardagi forscha-tojikcha o‘zlashmalar haqida gap ketar ekan, o‘zbek adabiy tilining shakllanishida fors tilining ishtiroki hamda eroniy leksik qatlarning tarixiy tavsifi masalalariga to‘xtalib o‘tmoqni joiz deb topdik. Ba’zi qardosh bo‘lmagan urug‘ va qabilalar orasidagi aloqalar xalqlarning etnik-lingvistik taraqqiyotiga, ayrim millatlar tilida turli xil qorishiq til birliklarining paydo bo‘lishiga olib keladi. Turkiy va o‘zga oilaga mansub bo‘lgan tillar orasidagi aloqalar hamda bu aloqalar tillarning rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishi haqida M.Koshg‘ariy ham o‘z vaqtida fikr bildirib o‘tgan[9]. O‘zbek tilining boshqa oilaga mansub tillar bilan, xususan, fors tili bilan o‘zaro munosabati muhim masalalardan biridir[14]. Tilshunos olimlarning fikriga ko‘ra, o‘zbek va tojik tillarining bir-biriga ta’sirini ikki katta davrga bo‘lish mumkin:

1. Arablar istilosigacha bo‘lgan qadimgi tojik tili yoki sug‘d tiliga yaqin bo‘lgan til bilan munosabati davri.

2. Arablar istilosidan so‘ng tojik va o‘zbek tillari munosabati davri[3].

O‘zbek va tojik xalqlari O‘rta Osiyoda istiqomat qiluvchi eng qadimiy xalqlardan bo‘lib, bu ikki xalq bir xil turmush sharoiti va umumiy hududga ega bo‘lganligi sababli ijtimoiy hayotning turli sohalarida qadimdan hamkorlik qilib keladilar. Shuning uchun o‘zbek va tojik xalqlarining tillarida ko‘p o‘xshashliklar mavjud, ular tilning barcha sathlari, fonetikasi, lug‘aviy tarkibi va grammatik qurilishida aks etgan.

Tarixda Movarounnahr hududida, ayniqsa, shaharlarda yashagan tojik aholisi turkiyzabon aholi orasida hayot kechirishiga qaramay, o‘zining eroniy tili va etnik xususiyatlarini saqlab qolgan edi. Turli tillarda so‘zlashuvchi aholining bunday yaqin qo‘shnichiligi ikkita illikning kelib chiqishiga sabab bo‘lgan, binobarin, bu kundalik so‘zlashuv nutqi hamda adabiy til uchun ijobiy natijalarni bergan. Alisher Navoiy o‘zining «Muhokamat ul-lug‘atayn» asarida shunday yozadi: «... turkning ulug‘idin kichigiga degincha va navkaridin begiga degincha sart tilidin bahramandurlar. Andoqki, o‘z xurd ahvolig‘a ko‘ra ayta olurlar, balki ba’zi fasohat va balog‘at bila ham takallum qilurlar. Hatto turk shuaroisikim forsiy til bila rangin ash‘or va shirin gifter zohir qilurlar»[2].

Ye.D.Polivanov o‘zbek shevalarini tasniflashda eronlashgan va eronlashmagan o‘zbek lahjalarini farqlagan[13]. Adabiyotlarda o‘zbek tili va shevalarining tojik shevalariga ta’sir qilish hollari ham ko‘rsatilgan[7].

Badiiy adabiyot XV asr boshlaridan kitobiy yozuv tili bo‘lgan turkiyda yozilgan. Bu tili o‘sha davr ijodkorlari turkiy deb ataganlar, hozirgi kunda g‘arb tilshunoslari uni chig‘atoy tili deb yuritadilar. O‘zbek tilshunosligida akademik Shcherbak kiritgan “eski o‘zbek adabiy tili” istilohi bu davrga nisbatan faol ishlatiladi.

Mazkur davrda ko‘pchilik ijodkorlar turkiy va forsiyda bir xil ijod qilganlar. Navoiyning yosh zamondoshi va shogirdi Kamoliddin Binoiydan turkiyda yozilgan uncha ko‘p bo‘lmagan she’rlar to‘plami qolgan bo‘lib, ularning bir qismi va Shayboniyxon tarixi forsiyda yozilgan. Shayboniyxonning o‘zi turk va fors tillarida she’rlar yozishi haqida tarixiy ma’lumotlar bor. Demak, bu an’ana nafaqat XIV-XV asrlargacha, balki to XX asrning boshlarigacha davom etib kelgan. Temuriy xonlarining rasmiy-idoraviy tili sifatida fors tili qo‘llanilib, barcha hujjatlar shu tilda yuritilgan, biroq vaqf hujjatlarining tili turkiyda bo‘lgan.

Bu darajadagi o‘zaro chuqur aralashuv tilda katta o‘zgarishlarni vujudga keltirgan. adabiy tilga bir tomondan eroniy, asosan tojik shevalari kuchli ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa, boshqa tomondan fors adabiy tili o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Din va fan tili bo‘lmish arab tilining ta’siri ham katta bo‘lgan. Ularning natijasi sifatida adabiy til leksikasi ko‘p jihatdan fors tilidan kirib kelgan so‘zlar hisobiga boyigan[15].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Eroniy va turkiy qabilalarning ilk aloqalari qachon sodir bo‘lganligini aniq belgilash juda murakkab masala, biroq bu aloqalar bunday uch yarim – to‘rt ming yillar avval sodir bo‘lganligi tahmin qilinadi[10]. Tarixiy manbalarda esa, eroniy va turkiy qabilalar o‘rtasidagi aralashuv VII asrdan boshlab qayd etib kelingan. O‘rta Osiyoda, shu jumladan, O‘zbekiston hududida VI asrgacha turkiyzabon qabilarga nisbatan sharqiy-eroniy qabilalar ko‘proq bo‘lgan, degan fikrlar ham bor[8].

Ye.E.Bertelsning ma’lumotiga ko‘ra monaviylik adabiyoti turli eroniy va turkiy tillarda o‘zaro mutanosiblikda

rivojlanib borgan. Uning bunday fikrni bildirishiga sabab shuki, mazkur mavzudagi asarning turkiy tildagi matnlarida bir qator eroniy, forsiy tildagi nusxalarida esa, turkiy so'zlarni uchratish mumkin. Masalan, fors tilida bitilgan bir matn parchasida tangri va tegin kabi so'zlar uchraydi. U monaviylik turkiy xalqlar tomonidan ko'proq quvvatlangan, degan fikrga kelishga asos borligini ham qayd qilib o'tgan[11]. Bu matnlar eroniy va turkiy tillarning o'zaro aloqada bo'lganliklarini bevosita ashyoviy dalillar orqali isbotlab beruvchi eng qadimiy manbalardir. Ularning yozilgan vaqti taxminan eramizning III – VIII asrlariga to'g'ri keladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bu tillarning yanada qadimiyroq davrlardagi aloqalari ilmiy jihatdan xali yetarlicha yoritilgan emas. Bunga sabab eroniy va turkiy tillarning milloddan oldingi holatlarini aks ettiruvchi yozma manbalar juda ozchilikni tashkil etadi. Bundan tashqari, ular asosan uzug-yuluq matnlar, tanga va tamg'alarga tushirilgan so'zlar va yunon olimlari tomonidan shakllari o'zgartirib berilgan kishi ismlari, qabila va joy nomlari va shu kabi boshqa so'zlar holida yetib kelgan. Ular asosan makedoniyalik Iskandar zamonidagi yunon tarixchilarining asari va ularning arabcha tarjimalaridan iborat. Biroq bu manbalardagi bir qator nomlarning (toponimlar, etnonimlar va antroponimlar) asl shakllari yunon va arab tillarida buzib berilgan va ba'zan o'zgartirib yuborilgan. Bu holat ularning etonogenezisini aniqlashga to'sqinlik qiladi. Ushbu asarda tasvirlangan ayrim voqealar bayonida ba'zi qabilalar haqida gap borar ekan, ularning eroniy yoki turkiy ekanligini aniqlash qiyin bo'lgan. Qadimgi turkiy tilning fanga ma'lum bo'lgan va qisman bo'lsa-da, uning til xususiyatlarini aks ettira oladigan yozuv yodgorliklarining eng qadimiyliklarining yozilish sanasi milodning boshlariga to'g'ri keladi. Shuning uchun qadimgi turkiy va paxlaviy tillarning ilk aloqalari qanchalik chuqur ildizga ega ekanligini aniqlash nihoyatda mushkildir[1].

Tahlil va natijalar. Turklar va eroniyliklar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalarning bu qadar uzoq tarixga ega ekanligi sababli har ikki tilda uchraydigan ayrim so'zlarning asl manbasi qaysi til ekanligini aniqlash maxsus izlanishlarni talab qiladi. Masalan, tadqiqotimiz manbasida uchraydigan «qadah» ma'nosidagi fors-tojikcha sog'ar va Mahmud Koshg'ariy «may» ma'nosida qayd etgan chag'ir (DLT,I,343) so'zlarining bir-biriga munosabatida shunday holatni ko'rish mumkin. Bunday masalaning qo'yilishiga sabab, birinchidan, mazkur so'zlar ohangdosh, ya'ni o'zaro juda yaqin tovush qurilishiga ega, ikkinchidan «may» va «may solinadigan idish» ma'nolarining so'zdagi ma'no taraqqiyoti natijasida bir so'z orqali ifodalanishi tilda uchraydigan hodisa bo'lib, bunga turkiy ayaq so'zi ham misol bo'la oladi. Bunday ma'no ko'chishi metonimiya deb yuritiladi. Ayaq so'zi XIV asrda faqat «idish, jom» ma'nosida ishlatilgan bo'lsa, XV asr yozuv yodgorliklarida u «may» ma'nosini ham ifodalab kelgan. Bundan tashqari, fors-tojik mumtoz adabiyoti va Navoiy asrlari tilida sog'ar so'zi turli iboralar va qo'shma so'zlar tarkibida «may» ma'nosida ham ishlatilgan (FZT,I,264; ANATIL,III,110).

“Tavorixi guzida - Nusratnoma”dagi forscha hamma, xon so'zlarining qadimgi turkiy tildagi qamu//qamug'//qamag' va qag'an//xaqan so'zlariga munosabati ham hozircha oydinlashtirilgan emas.

XIV asrning ikkinchi yarmi XVI asrning birinchi yarmi yozuv yodgorliklari tilida uchraydigan forscha so'zlarning bir qismi X-XI asrlardayoq turkiy adabiy tilda qo'llana boshlagan. «Qutadg'u bilig» va «Xiybat ul-hakoyiq» asarida biz tadqiq etayotgan manba tilida tez-tez uchraydigan gul, hush, doru, dil, dushman, mehribon, pariy, nishon, sazo, ham, har, hargiz kabi so'zlarning uchrashi qayd etilgan.

O'rta Osiyoda fors-tojik tilining ta'siri o'zining eng rivojlangan nuqtasiga yetishini “Tavorixi guzida - Nusratnoma” asari tilining leksikasida ham yaqqol ko'zga tashlanadi: haroson «qo'rqan, cho'chigan», hangom «payt, vaqt», hamto «teng, monand, o'xshash», shirinzaqon «shirinso'z», shabgir «tun», chashm «ko'z» kabilar.

“Tavorixi guzida - Nusratnoma”dagi forscha rang so'zining ma'no xususiyatlarini ko'rib chiqsak. O'zbek tilining izohli lug'atida bu so'zning ma'nolari quyidagicha izohlangan: Rang 1. Bo'yash uchun ishlatiladigan modda; bo'yoq; 2. Biror narsaning o'ziga xos bo'yog'i; tus; 3. Kishining yuzidagi qizillik

darajasi; 4. ko'chma gap, nutq, ohang va shu kabilardagi nozik bo'yoq, tus; jilva; 5. ko'chma jonlilik, fayz (O'TIL,614).

«O'zbekcha-ruscha lug'at»da rang so'zining uchta ma'nosi berilgan: 1. kraska; svet, koler; 2. ton; okraska (chego-l.); mast (jivotnyx); 3. svet litsa (URS,338).

Hozirgi fors tilidagi ma'nolari quyidagilar: 1) svet, okraska; kraska (rang, tus; bo'yoq); 2) mast (zot); 3) yarkost, blesk, krasochnost (Rang so'zining bu ma'nosi lug'atda quyidagi misol bilan tasdiqlangan: «korash rang nadorad» – yego dela ne blestyayshi (uning ishlari yurishmayapti)). Bu o'rinda mazkur so'z lug'atda rang doshtan tarzida qo'shma so'z tarkibida berilib, «imet uspex, blestat» (rivoj topmoq, yurishmoq) qabilida berilsa maqsadga muvofiq bo'lardi[12]; 4) peren. xitrost, obman; 5) plan: rang rextan obdumyvat (delo), sostavlyat plan (reja tuzmoq); 6) polza, vygoda, pribyl (naf, foyda); 7) vlast, moguchestva, sila (hukmronlik, kuch-quvvat, qodirlik); 8) sposob, obraz, forma, manera (tarz, ravish).

L.Budagovda rang blesk, krasota, svet, mast (na kartax), met. xitrost, ulovka, obman; ranglu imeyuyuy svet, svetnoy...; tutmaq bir rangla vzyat xitrostyru, poymat obmanom, poddud[5].

“Tavorixi guzida - Nusratnoma”dagi forscha so'zlarning mavzu guruhlarini quyidagicha tasnif etish mumkin:

Falsafiy tushunchalar: jahon, jon, ravon, xirad, xush, paykar va b.

2.Tabiat hodisalari va osmon bilan bog'liq tushunchalar: abr, axtar, gardun, gunbad, mah / moh, mehr, oftob, xurshid, parvin, sipehr, charh, partav, bod, shabnam, jola, daryo, jo'y, chashma, sarchashma, girdob va b.

Diniy tushunchalar va afsonaviy nomlar: yazdon, kirdigor, xudo/xudoy, beniyoz, parvardigor, musulmon, nomusulmon, namoz, pariy, xub, pariyxona, bihisht, do'zah, mug'on, xumo, but, ro'za va b.

Ismlar va taxalluslar: Afridun, Salmon, Sikandar, Jam, Zol, Yusuf, Xusrav, Kayxisrav, Fag'fur, Gado va b.

Jug'rofiy atamalar va joy nomlari: So'manot, Kashmir, Mochin, Rum, Farang, Xato/Xito, Chin, Hari/Hiri, Hirot, Hindiston, Xovar va b.

Kishilar o'rtasida bo'ladigan turli munosabatlarni ifodalovchi so'zlar: begona, dushman, yor, yoron, do'st, hamdam, hamnashin, hamroz, hamroh, dastgir va b.

Qush, hayvon nomlari va ularga aloqador so'zlar: kabk, to'tiy, zog', ohu, magas, bol, par, parpoi, nof, nofa va b.

Narsalar va buyum nomlari: axgar, bolin, dom, zanjir, band, maras, jom, paymona, goy, xas, xoma, xon, paykon, parda, shisha, payandoz, soyabon, taxt, xargoh/xirgoh, chirog', devon, ganj, guhar, zar, xok, gil, sang va b.

Qurol-aslaha nomlari: tiyr, tiyg', xadang, tabar, novak va b.

Oziq-ovqat va dori-darmon nomlari: boda, durd, may, mul, sog'ar, namak, no'sh, no'shdoru, ob, doru, to'tiyo, mushk, zahr va b.

Bog'dorchilik atamalari: arg'uvon, bog', bo'ston, gulzor, guliston, sanavbar, sarv, bar, gul, saman, nozbo'y, gulbun, gulob, nihol, barg, gulbarg, nayshakkar va b.

Inson tana qismlari va ularga aloqador tushunchalar: diyda, chashm, mujgon, xunoba, ashk, lab, bar, tan, sar, dil, rishta, zanahton, bunogo'sh, zulf, sunbul, muy, poy, rux, ruxsor, ro'y, chehra, xol va b.

Kiyim-kechak va ularning qismlari nomlari: jinda, kurta, kamar, girebon, chok, kamar, afsar, toj va b.

Mavhum tushunchalarni ifodalovchi so'zlar: andesha, anduh, armon, afg'on, bazm, baxt, bahona, bor, bunyod, vom, gunoh, dard, sitam, darmon, dod, dog', dashnom, ziyon, zor, yod, yodgor, kom, lof, mehr, iotam, mujda, navo, niyoz, nishon, noz, noz, nola, nom-u nishon, obro', dilxoh, orzu, orom, osho'b, oh, paymon, payom, payg'om, panoh, pavo, pushaymon, razm, rang, sud, rang, ranj, rastaxez, gasht, gulgasht, guftor, diydor, raftor, rashk, roz, charh, ro'zgor, tob, toroj, umid, faryod, farmon, fig'on, xanda, xirom, xiromon, xob, xurramiy, chora, sheva, shikeb, shodiy, qahqaha, g'irev, hangom, tovon, girudor, nishona, poya, joh, afsona, guvoh, chora va b.

Insonning jismoniy va ruhiy belgilarini ifodalovchi so'zlar: afganda, afgor, badbaxt, banda, basta, bandafarmon, bedor, bejon, bezor, bekom, bemor, bedarmon, benavo, betob,

bechora, bedil, giriftor, devona, oshufta, parishon, parishonro'zgor, beroy-u roh, darbadar, ovora, parvona, ko'bako'y, sargardon, sargashta, xaridor, shaydo, biyon, gadoy, gumroh, go'l, mast, koriy, rosiyoh, dilxasta, xasta, xastadil, xoksor, xor, shikasta, xiroson, dushmankom, jahongir, nekaxtariy, humoyun, shod, shodmon, komyob, komron, tavongar, nozukbadan, fasoy, jahonoro, mahvash va b.

Insonning axloqiy va ma'naviy jihatlarini ifodalovchi so'zlar: nodon, xudbin, xudroy, badnom, bedod, xunrez, xunxor, jongudo'z, sitamgar, bejigar, paymongusil, sustpaymon, sharmanda, sharmsor, farzona, xurdabin, dilkushoy, dilovar, jonfazo, ravonbaxsh, pobarjo, odamiy, yazdoniy, nekhoh, mehribon, nomehrbon, shox, shirinkor, shirindaxon va b.

Narsa-hodisalarning belgi va xususiyatlarini ifodalovchi so'zlar: mushkbor, tobon, farovon, farroh, xurram, farhunda, xujasta, xush, farruhpay, beh, botil, behuda, ozod, sahi, bebunyod, dushvor, oson, ravon, serob, tar, toza, soro, nob, pok, purpech, purtob, purxam, xam, duto, girihgir, darxam, pursho'r, purg'avg'o, xom, rangin, g'alton, tund, rushan, jovidon, bepoyon, kamtarin, ko'tah, daroz, barin, bolo, vobasta, besipoh, nihon, pinhon, xuvaydo, xandon, vayron, xoro, rangin, purtob va b.

Kasb-hunar, mashg'ulot, amal-mansab nomlari: jodu, darbon, gulhaniy, nigohbon, payk, go'yiyo, nolon, pir, xoja, sar, sarvar, kay, shahzoda, shahriyor, shoh shah, mehmon va b.

Makon bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi so'zlar: bozor, borgoh, dargoh, vayrona, yobon, go'sha, kulba, kunj, zindon, choh, kishvar, kon, ko'y, maydon, oston, ostona, poyon, roh, xiyovon, shahr va b.

Rang va tus bildiruvchi so'zlar: gulrang, yaldo, siyoh, mino, mushkin, siymin, siym, arg'uvon va b.

Ravishlar: bayak, banogoh, begoh, nogoh/nogah, nogahon, barsare, bas, base, bisyor, kam, andak, begumon, bedarig', sarosar, bore, dubora, gah/goh, chandon, dambadam, damodam, ro'baro'y, hamin, hamon, hanuz, hargiz, hech, zinhor, mardona, mastona, kom-u nokom, nochor, behamto, sarafrozon, tang, fardo, darmiyon va b.

Vaqt bilan bog'liq tushunchalar: bahor, navbahor, xazon, shab, shabiston, shabgir, shom va b.

Yordamchi so'zlar: agar, gar, garchi, yo, yoxud, xud, koshki, magar, pas, to, xoh, xohi, chu chun, chunki, ham; bar, bahr, bo, go'yo, dar, juz, dona, juft, toq, yakdona, yagona, yakto va b.

Xulosa. Demak, "Tavorixi guzida - Nusratnoma"da 1389 ta forscha-tojikcha so'z mavjud bo'lib, bu asar leksikasining 24%ini tashkil etadi. Asarda ishlatilgan forscha-tojikcha so'zlarning tavsifi keyingi fasllarda bayon etilgan.

ADABIYOTLAR

1. Абдуллаев Ф. XV аср ўзбек адабий тилининг диалектал асослари масаласи. Навоий ва адабий таъсир масалалари. – Тошкент, 1968. – Б. 238-257.
2. Алишер Навоий. Асарлар. Ўн беш томлик. Ўн тўртинчи том. – Тошкент, 1967. – Б.108.
3. Андреев М.С. О таджикском языке настоящего времени. Материалы по истории таджиков и Таджикистана. – Сталинабад, 1945. – С. 58-59.
4. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик катламлари. – Тошкент, 1985.
5. Будагов Л. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. Том I. – СПб, 1869. – С. 597.
6. Гулямов Х. Узбекско-таджикские языковые связи. – Ташкент: Фан, 1983. – Б. 168.
7. Дасторгуева В.С. Об устойчивости мифологической системы языка (по материалам северных таджикских говоров). В кн. Вопросы теории и истории языка. – М., 1952. – С. 225-236.
8. История узбекской ССР. I том. – Т., 1967. – С. 168.
9. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. I том. – Тошкент, 1960.
10. Мусаев К.М. Тюрко-иранские языковые связи. // Советская тюркология. – 1989, № 6. – С. 26.
11. Оранский И.М. Введение в иранскую филологию. – М.:Наука, 1988. – С. 86, 88.
12. Персидско-русский словарь. Том I. – М., 1970. – С. 732-733. 782
13. Поливанов Е.Д. Образцы не-иранизированных (сингармонических) говоров узбекского языка. I-II. – М.: Отд. гуманитарных наук, 1929.
14. Турсунов У., Ўринбоев Б. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – Б. 16.
15. Усмонов С. Ўзбек тилининг луғат составида тожик-форсча ва арабча сўзлар. – Тошкент, 1968. – Б. 108-109.